

«Global Atomic Quiz» xalqaro ma'rifatparvalik loyihasida ishtirok etish istagini tasdiqlash va shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik

Ushbu bilan «Global Atomic Quiz» xalqaro ma'rifatparvarlik loyihasida (keyingi o'rinlarda – «Loyiha») ishtirok etishga hamda quiz.atomforyou.com sayti ma'muri bo'lgan (keyingi o'rinlarda – «Loyiha tashkilotchisi») Atom energiyasi bo'yicha axborot markazlarini rivojlantirish, «Kelajak Energiyasi» avtonom notijorat tashkilotining («Kelajak Energiyasi» ANT, manzil: 117105, Rossiya Federatsiyasi, Moskva shahri, Varshava shossesi, 3-uy) Loyihasida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tish vaqtida o'zim tomondan taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarimni avtomatlashtirilgan, avtomatlashtirilmagan, aralash tarzda (keyingi o'rinlarda – «Qayta ishlash»), shu jumladan Loyiha tashkilotchisi topshirig'iga binoan o'zga shaxslar tomonidan qayta ishlanishiga ota-onam/qonuniy vakilimning roziligini olganman. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga ma'lumotlarni to'plash, tizimlashtirish, jamlash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), foydalanish, taqdim etish, yuborish, shaxsiyatni mavhumlashtirish, bloklash, yo'q qilish kiradi. Qayta ishlash jarayonida Loyiha tashkilotchisi Loyihani tashkil qilish va o'tkazishda ishtirok etuvchi uchinchi shaxslarga Shaxsiy ma'lumotlarni sir saqlash va ularning xavfsizligini ta'minlash sharti asosida berish huquqiga ega.

Ushbu Loyihada ishtirok etish doirasida meni xabardor qilish, xabarlar yuborish, taklifnomalar, sovg'alar yo'llash va Loyihadagi ishtirokim bo'yicha boshqa natijalarni yetkazish uchun Loyiha Qoidalariga muvofiq mening Shaxsiy ma'lumotlarimni qayta ishlashga rozilik beriladi.

Shu bilan mening Shaxsiy ma'lumotlarimni 31.12.2022 yilga qadar qayta ishlanishiga rozilik beriladi.

Shu bilan quyidagi shaxsiy ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqilishiga rozilik berilmoqda: ismi-sharif, tug'ilgan sana, amaldagi telefon raqam va elektron manzil, foydalayotgan xos (unikal) qurilmaning tarmoq manzili, Loyiha doirasidagi ishtirokimning natijalari (to'plagan ballar ko'rinishida). Shuningdek, viktorinadagi ishtirokimga oid ism-sharif va to'plagan ballarim ko'rinishidagi ma'lumotlarni Loyihaning quiz.atomforyou.com. sayti orqali e'lon qilinishiga qarshi emasman.

Shuningdek Loyihada ishtirok etuvchilar ro'yxatiga kirish jarayonida men/ota-onam (qonuniy vakillarim) tomonidan taqdim etilgan shaxsimga doir ma'lumotlarning haqiqiy ekanligini tasdiqlayman.

Loyiha doirasidagi viktorinada ishtirok etib, eng yuqori ball to'plagan taqdirimda sovg'ani olish uchun men/ota-onam (qonuniy vakillarim)ning imzosi va ma'lumotlari bo'lgan Rozilikning skaner qilingan nusxasini taqdim etishim zarurligi to'g'risida ogohlantirildim.

Men/ota-onam (qonuniy vakillarim) 117105, Rossiya, Moskva sh, Varshava shossesi, 3-uy manziliga tegishli bildirishnoma yo'llash orqali shaxsiy ma'lumotlarimni qayta ishlashga bergan roziligimni to'la yoki qisman qaytarib olishga haqli ekanligim to'g'risida ogohlantirilganman.

Shaxsiy ma'lumotlarimni qayta ishlashga bergan roziligimni qaytarib olish bilan Loyihada ishtirok etish, shu jumladan sovg'aga ega bo'lish huquqidan mahrum etilishim to'g'risida ogohlantirilganman.

Shuningdek, loyihani amalga oshirish bilan bog'liq har qanday xabarlarini qabul qilib olishga rozilik bildiramiz.